XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 14 - aprel VI-66-60-9-122-K/22 Oqoltin tumani hokimligi

Tumandagi ayrim nomlanmagan ko‘chalarga nomlar berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 12.10.2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O'RQ-303-son Qonunning 10-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son Qarori va 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 28-fevraldagi 01-14-229-sonli yig‘ilish bayoni va tuman hokimligining ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekpertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 28- fevraldagi 01-14-229-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oqoltin tumanidagi Yangi Toshkent mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan nomlanmagan ayrim ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 28-fevraldagi 01-14-229-sonli yig‘ilish bayoni bilan taklif etilgan ko‘cha nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (X.Djavlonov), tuman Adliya bo‘limi (H.Erkaboyev), tuman Statistika bo‘limi (Sh.Qurbonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Asomov), Davlat xizmatlari markazi (B.Ismailov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Ibodullayev), Davlat kadastrlar palatasi tumani filiali (B.Qurbonov), tuman Qurilish bo‘limi (A.Qudratov) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Haydarov, tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Ibodullayev) ga:

- 10 kun muddatda hududdagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiya (A.Haydarov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Ibodullayev) va fuqarolar yig‘ini raisi bilan hamkorlikda:

- bir hafta muddatda hududda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (X.Djavlonov)ga:

- tuman hududidagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi B.Yusupovga;

-hududda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlar bersin.

8. “Oqoltin ovozi” gazetasi tahririyati (A.Pardayev)ga ushbu qarorni “Oqoltin ovozi” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Axmedov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Saydaliyev) va tuman hokimining o‘rinbosari A.Haydarov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **D.Fazilov**

Xalq deputatlari Oqoltin tuman Kengashining
2022 yil 14 apreldagi
VI-66-60-9-122-K/22-son qaroriga
1-ilova

Oqoltin tumanida Geografik obektlarni inventarizatsiyadan o‘tkazilgan hamda tasdiqlangan nomlangan Geografik obektlar

RO‘YXATI

№	Geoegrafik obektning turi	Joylashgan o‘rni	Geoegrafik obektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasiga taklif etilgan nomlar	Viloyat komissiyasi tomomnidan tavsiya etilgan nomlar
1	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Sayhun, Xotira,Turon	Takliflardan **Turon** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Mustaqillik, Bahor, Navbahor	Takliflardan **Mustaqillik** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Zilol suv, Karvon, Sohibkor	Takliflardan **Sohibkor** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Jiydali, Oqbuloq, Navnihol	Takliflardan **Navnihol** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Temur malik, Yangi bahor, Ko‘k terak	Takliflardan **Temur malik** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Yangizamon, Munis, Obod dala	Takliflardan **Yangizamon** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

7	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Nurli tong, Yuksalish, Marifat	Takliflardan **Nurli tong** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Ziyokor,Faravon, Sirg‘ali	Takliflardan **Sirg‘ali** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Kamolat, Rohat, Nurafshon,	Takliflardan **Rohat** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	Ko‘cha	Yangi Toshkent	Nomsiz	Bog‘ishamol, Nayman, Intilish	Takliflardan **Bog‘ishamol** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.